



**28 SENTABR
2023**



**MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT
DAVLAT
PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

**BADIIY TA'LIMNING DOLZARB MUAMMOLARI
INTEGRATSIYA VA ISTIQBOL TENDENSIYALARI
MAVZUSIDAGI ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA**



TOSHKENT – 2023

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

TASVIRIY SAN’AT kafedrası

**BADIIY TA’LIMNING DOLZARB MUAMMOLARI, INTEGRATSIYA
VA ISTIQBOL TENDENSIYALARI
Respublika ilmiy-amaliy anjumani**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ,
ИНТЕГРАЦИЯ И ПЕРСПЕКТИВНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ
Республиканская научно-практическая конференция**

**CURRENT PROBLEMS OF ART EDUCATION, INTEGRATION AND
PROMISING TRENDS
Republican scientific and practical conference**

28-sentyabr 2023-yil

Toshkent – 2023

59	A.Karimova	Tasviriy san'at darslarida asarlarni badiiy tahlil qilish jarayonida talabalarni mantiqiy fikrlashini rivojlantirish	273
60	X.A.Халдаров	Некоторые цифровизации изобразительного искусства	280
3-sho'ba: PROFESSIONAL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH: YUTUQ VA ISTIQBOLLAR. 3-секция: РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ: ДОСТИЖЕНИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ.			
61	N.Talipov D.Egamberdiyeva R.To'laganxodjayeva	Talabalar bilan ranglavhalar ishlashning individual metodlari	283
62	X. A. Turayev	Innovatsion yondashuv asosida chizmachilik fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish	287
63	Н.Н.Талипов М.Рахмонжонова М.Неъматова	Бадий таълим орқали талабаларнинг ижодий фаолиятини ривожлантиришнинг креатив технологиялари	293
64	Sh. B. Nazirbekova	Tasviriy san'atda portret ishlash pedagogik texnologiyasi	297
65	D. N.Bo'riboyeva	Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari asosida fazoviy tasavvurni rivojlantirishda ularga bog'liq omillar	302
66	L.M.Ibragimova	Chizmachilikni o'qitishda ba'zi interfaol metodlardan foydalanish	305
67	G' .A.Mambetkadirov	Tasviriy san'atda tarix mavzusi talqini	309
68	M.Z.Xasanova	Tasviriy san'at asarlarining kompozitsion tuzilishini tahlili, inter'er – fazo va atrof-muhit kompozitsiyasining asosi sifatida	312
69	N. I.Yuldasheva	Tasviriy san'at fanini o'qitishda manzara janrini qo'llanilishi	315
70	X.X.Ibragimov	Plenerda rasm ishlash orqali o'quvchilarning ijodkorlik faoliyatini rivojlantirish	320
71	M.B.Axmedov M.Z.Xasanova	Talabalarga qalamtasvir fanini o'qitishning nazariy asoslari	326
72	N.N.Abdusalomxo'jayev J.Axmatjonova	Illyustratsiya grafikasining bir turi sifatida	329
73	F.A.Nasrullayeva	Texnologiya fani darslarining samaradorligini oshirishga qaratilgan dolzarb vazifalar	332
74	D. E.Omonov	O'quvchilarning tarbiyasida tasviriy san'at va kompyuter texnologiyalarning o'rni va ahamiyati	336
75	D.E.Omonov	Tasviriy san'atda rangtasvir fanini yangi pedagogik texnologiyalar yordamida taqdimotni ko'rsatish usullari	340
76	S.T.Sobirov	Illyustratsiyalarning bolalar uchun nashr qilinadigan kitoblardagi vazifalari	344
77	X.A.Тураев	Чизмачилик фанидан дарс ва дарсдан ташқари мустақил таълимни ташкил этиш методикасини такомиллаштириш	350
78	X. A. Turayev	Innovatsion yondashuv asosida chizmachilik fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish	355
79	X.X.Muratov	Talabalar mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish va	362

of the theme of forty in drawing lessons graphically. *Science and Education. Scientific Journal*. Volume 2, Issue 2, p. 264-268.

5. Uemukai, T. Hara, T. Nishio, S. (2004). A method for selecting output data from ubiquitous terminals in a ubiquitous computing environment. *Proc. of the 24th Int. Conf. on Distributed Computing Systems Workshops (ICDCSW'04)*, Tokyo, Japan, pp. 562-567.

6. Liyytinen, K. Yoo, Y. (2002). Issues and challenges in ubiquitous computing. *Communications of the ACM*, vol. 45, no. 12, pp. 62-65.

7. Ogata, H. Yano, Y. (2004). Context-aware support for computer-supported ubiquitous learning. *Proc. of the 2nd IEEE Int. Workshop on Wireless and Mobile Technologies in Education*, JungLi, Taiwan, pp. 27-34.

8. Boyinbode, O.K. Akintola, K.G. (2008). A sensor-based framework for ubiquitous learning in Nigeria. *IJCSNS International Journal of Computer Science and Network Security*, vol. 8, no. 11, pp. 401-405.

TALABALAR MUSTAQIL TA'LIM FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISHDA TA'LIMNI OPTIMALLASHTIRISH, MODERNIZATSIYALASH HAMDA RAQAMLASHTIRISH

X.X.Muratov

v.b., dotsent

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

x.muratov@csoi.uz

Annotatsiya

Talabalar mustaqil ta'lim faoliyatini to'g'ri tashik etish, boshqarish va nazorat qilish hamda ta'lim jarayonini optimallashtirish, modernizatsiyalash va raqamlashtirish orqali ta'lim sifatini va samaradorligini oshirish, jahon talablari darajasida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash masalalari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar

Mustaqil ta'lim, kreativ, interaktiv, elektron ta'lim, optimallashtirish, modernizatsiyalash, raqamlashtirish.

Аннотация

Обсуждаются вопросы правильной транспортировки, управления и контроля самостоятельной образовательной деятельности студентов, а также повышения качества и эффективности образования за счет оптимизации, модернизации и цифровизации образовательного процесса, подготовки конкурентоспособных кадров на уровне мировых требований.

Ключевые слова

Независимое образование, творческое, интерактивное, электронное образование, оптимизация, модернизация, цифровизация.

Annotation

The issues of proper transportation, management and control of independent educational activities of students, as well as improving the quality and efficiency of

education through optimization, modernization and digitization of the educational process, training of competitive personnel at the level of world requirements are discussed.

Keywords

Independent education, creative, interactive, e-learning, optimization, modernization, digitization.

Jahon oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'lim faoliyati haqidagi g'oyalarning rivojlanishi, faol mustaqil faoliyati uning tafakkurini muvaffaqiyatli rivojlantirish va qobiliyatlarini takomillashtirishning kreativ modul mexanizmlari ta'lim jarayoniga tatbiq etilmoqda. YUNESCO va Xalqaro universitetlar assotsiatsiya dasturlarida talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini rivojlantirish, ta'lim texnologiyalarni qo'llash⁹⁰, kasbiy tayyorgarlikni mustaqil ta'lim olish faoliyatini tashkil etishga qaratilgan yirik loyihalarni amaliyotga joriy etishga qaratilgan ishlar tizimli amalga oshirilmoqda. Auniqsa, oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari, zamonaviy bilimga ega va mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish va ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda, ijtimoiy soha hamda iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishga strategik masalalar sifatida alohida ahamiyat berilgan.

Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish" vazifasi bo'yicha ilmiy ishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, talabalarning mustaqil ta'lim olishlari, mustaqil ishlash, mustaqil ta'limni tashkil etish, mustaqil ta'lim modelini takomillashtirish, mustaqil bilim olish faoliyatining mazmuni, metodlar, shakllar va vositalarni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlar ahamiyatiga e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda zamonaviy axborot muhitini keng joriy qilish, talabalarda ijodiy va mustaqil fikrlash, ijtimoiy va kasbiy sifatlarni rivojlantirish, erkin fikrlay oladigan bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda ilg'or xorijiy tajribaga asoslangan holda jahon sivilizatsiyasining yutuqlaridan foydalanishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. Shuningdek, talabalarda badiiy-estetik kompetentlikni takomillashtirish asosida "Jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini

rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish”⁹¹ muhim vazifa etib belgilandi.

Talabalar mustaqil ta’lim faoliyatini to’g’ri tashkil etish, boshqarish va nazorat qilish shakllari, vositalari va metodlarini takomillashtirish orqali ta’limni sifatiga hamda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga erishish mumkin deb hisoblaymiz.

Mustaqil ta’lim jarayonini faollashtirish uchun bugungi kunda an’anaviy o’qitish usullaridan, noan’anaviy o’qitish usullari ya’ni dars jarayonida yangi pedagogik va innovatsion texnologiyalardan faol foydalanish, o’qitishning yangi usullari joriy qilinmoqda.

Mustaqil ta’lim jarayonining samaradorligi bilan bog’liq navbatdagi nazariy tushuncha ta’lim jarayonini optimallashtirishdir. Optimallashtirish nazariyasi, yangi muammolarni shakllantirmaydi, ta’limda duch keladigan muammolarni hal qilishning eng yaxshi yo’llarini topishga o’rgatadi. Optimallashtirish nazariyasining vazifasi ta’lim jarayonini optimallashtirish uchun mezon va usullarni shakllantirishdan iborat.

Yuqoridagi fikr mulohazalardan kelib chiqqan holda biz mustaqil ta’lim jarayonini optimallashtirishning quyidagi yo’llarini taklif etamiz:

ta’lim jarayonini maqbul rejalashtirish hamda undagi tizimning xususiyatlarini e’tiborga olgan holda ta’lim mazmunining optimal versiyasini tanlash;

Mustaqil ishlash uchun mo’ljallangan vazifalarga ajratilgan vaqt ichida eng muvaffaqiyatli hal qilish imkonini beruvchi usullar va o’qitish vositalarini tanlash;

belgilan vaqt ichida vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish uchun maqbul sharoit yaratish;

ta’lim oluvchilarning o’quv faoliyatini boshqarish va o’zini-o’zi boshqarishning oqilona uyg’unligi (o’qitishni optimallashtirish);

o’quv-bilish natijalari va sarflangan vaqtni optimallik mezonlari asosida tahlil qilish.

Ta’limni modernizatsiyalash strategiyasi ta’limning quyidagi muhim maqsadlarini ko’rib chiqadi: talabalarga ko’proq mustaqillik berish va o’z ustilarida ishlash qobiliyatini rivojlantirish, hamkorlikda ishlash, ijodiy faoliyatni rivojlantirish, o’zgalarning fikrlariga to’g’ri qabul qilish kabilar.

Ta’lim jarayonini raqamlashtirish - Zamonaviy dunyoda ta’limning dolzarb yo’nalishlaridan biri raqamli iqtisodiyot uchun kompetent kadrlar tayyorlash uchun pedagogik va raqamli texnologiyalarni integratsiyalaydigan axborotlashtirish sanaladi. Ochiq ta’lim resurslari va ommaviy ochiq onlaun kurslarning qulayligi axborot texnologiyalarining ta’limiy salohiyatini boyitishga xizmat qilmoqda. Yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish sharoitida bo’lajak mutaxassislar uchun zarur kompetensiyalarni shakllantirish sohasida tadqiqotlar olib borilmoqda, o’z navbatida, pedagogik tashxisni takomillashtirish, erishilgan

91 O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida” farmoni.

natijalarni aniqlash imkonini beradigan metodikalarni tatbiq qilish ustuvor yoʻnalishlar hisoblanadi.

Shu maqsadda oliy taʼlim muassasalarida taʼlim jarayoniga “Moodle elektron taʼlim tizimi”ni joriy etilishi, “HEMIS” axborot tizimi, t-kontrakt.edu.uz tizimi, stipendiya.edu.uz tizimi, prof-talim.edu.uz tizimi, onlaun kurslarni tashkillashtirilishi, aralash (blended) kurslarni tatbiq etilishi, ochiq resursli (MOOC – Massive Open Online Course) kurslarni faoliyat olib borishi mamlakatimizda raqamli texnologiyalarni taʼlim sohasini rivojlantirayotganligiga yaqqol misoldir.

Bundan tashqari oliy taʼlim muassasalarida talabalar oʻquv varaqasi, guruh jurnali, reyting daftarchasi, akademik maʼlumotnoma, dars jadvali, davomat va oʻzlashtirishga oid maʼlumotlar raqamlashtirildi. Shuningdek, QR kodli toʻlov-shartnomalar va diplomlarni elektron koʻrinishda taqdim etish yoʻlga qoʻyildi.

Biz tadqiqot ishimizning predmetini belgilab olishda - mustaqil taʼlimni faollashtirish asosida shu kungacha pedagoglar tomonidan toʻplangan barcha qimmatli maʼlumotlarni qayta koʻrib chiqish, bu tajribadan mustaqil taʼlimning faollashtirishda foydalanish zarurligini belgilab oldik.

Talabalarning oʻquv faoliyatini mustaqil tashkil etishni murakkablashtiradigan tashqi omillar orasida turli oʻqituvchilarning nomuvofiqligi, muvofiqlashtirilmagan harakatlari va talablari, nomukammal tuzilgan jadvallari, masalan, bir butun kun uchun seminar rejalashtirilgan va hokazo. Yaxshi oʻqiganlar va mustaqil taʼlim olishni yaxshi tashkil etganlar oʻquv jarayonini tashkil etishning tashqi shart-sharoitlariga kamroq sezgirdir.

Yuqoridagi fikrlardan hamda ilmiy va pedagogik foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatini tahlil qilish shuni koʻrsatdiki, kelajakda taʼlim oluvchilarning taʼlim tizimining asosi boʻlgan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarni oʻrganish jarayonida talabalarning mustaqil taʼlimini faollashtirish muammosi boʻyicha ilmiy tadqiqotlar yetarli emas deb hisoblaymiz. Mustaqil taʼlimni faollashtirish mohiyati toʻliq yoritilmagan, bu muammoni oʻrganishda nazariy yondashuvlar ishlab chiqilmagan. Asosan mustaqil taʼlimning anʼanaviy usullari (referat, kurs ishi, kurs loyihasini tayyorlash, bitiruv malakaviy ishlarni tayyorlash va boshqalar) dan foydalanishgan. Ushbu muammoni hal etishga metodologik yondashuvlarni koʻrib chiqish zarur.

Foydalanilgan Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati roʻyxati

Muratov X. Tasviriy sanʼat fanidan mustaqil taʼlimni tashkil etish va boshqarishda “ISPRING” dasturiy taʼminotining ahamiyati. Academic Research in Educational Sciences. 2020. Vol. 1 No. 2, 2020.

Muratov X.X., Yusupova Sh.A. Umumiy oʻrta taʼlim maktablarida dars mashʼulotlarini autoplay media studio dasturi orqali integratsiyalash. Academic Research in Educational Sciences. Volume 1 | Issue 3 | 2020.

Muratov K.K., Tadjiyeva F.M. Issues of Improving the Technology of Organization and Management of Independent Learning Activities of Students in the Fine Arts //International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. – 2021. – T. 8. – №. 11. – C. 521-525.

Усмонов Б.Ш. Олий таълим, фан ва ишлаб чиқариш интеграциясини кластерли ёндашувлар асосида инновацион ривожлантириш п.ф.д. (DSc) ... дисс. автореф.. –Т.: 2020. – 75 б.

Ходжаев Б.Х. Модернизациялашган дидактик таъминот воситасида умумтаълим мактаблари ўқувчиларида тарихий тафаккурни ривожлантириш. Монография. – Т.: Фан ва технология, 2015. – 288 б.

Xodjayev B.X., Choriyev A., Saliyeva Z.T. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. – Т.: IQTISOD DUNYOSI, 2018. – 178 б.

АМИР ШОҲМУРОД ДАВРИДА БАРПО ЭТИЛГАН ИМОРАТЛАРНИНГ АСОСИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ

М.Умарова

Камолиддин Бехзод номидаги
Миллий рассомлик ва дизайн
институтини “Ижтимоий фанлар, касбий
таълим ва педагогика” кафедраси
ўқитувчиси, ЎзР ФА Тарих институтини
изланувчиси;
muhayyo120875@gmail.com

XVIII асрнинг 20 йилларида бошланган ўзаро курашлар натижасида Бухоро амирлиги ҳудудлари таланган, вайрона ҳолига тушиб қолган эди. Амир Шоҳмурод мамлакатга кўплаб қурувчи, кошинпаз ва наққош усталарни теваарак атрофдан олиб келтириб иншоотлар (масжид, мадраса, бозор, мелиорация ва ирригация) қурилишига эътибор қилган. Асосан XVI-XVII асрларда Бухоро меъморчилигида рангли ғиштларни мураккаб териш услублари, хоналарни ҳавзақли шиплари гулли нақшлар билан безаш ва рангли, унчалик чуқур бўлмаган ганч ўймакорлигининг кенг қўламда қўлланилиши сезилади⁹². XIV-XVIII асрлар меъморий беагида рангли кошин, ҳалли рангтавир, ғиштин мозаика ва рангли ганч билан безаш урф бўлган⁹³.

XVIII асрнинг охирига келиб хоналари узун деворлари оқ текис ганчшувоқ билан шувалган ва қисқа деворлар қисмларга ажратилиб бадий ишлов берилган. Қисқа деворлар бутун бўйига жимжимадор панжара шаклидаги гулли гулдон сояси шаклидаги ва бошқа шакли ганж равоқчалардан ташкил топган. Бу равоқчалар унчалик чуқур бўлмай, уларнинг тизими безак вазифасини бажарган. Равоқчалар туташтирилган қисқа девор бир синчли бўлган ва равоқчалар девордан бўртиб чиққан. Уларни остида икки қатор муқарнасли тоқча жойлашган. Равоқчанинг тепаси

⁹² Бўронов Б.О. XIX асрнинг охири XX асрнинг бошларида Бухоро тураржой меъморчилигида нақш санъати. Санъатшунослик фанлари ном.дисс. Тошкент. 2007. – Б. 59.

⁹³ Бўронов Б.О. XIX асрнинг охири XX асрнинг бошларида Бухоро тураржой меъморчилигида нақш санъати. Санъатшунослик фанлари ном.дисс. Тошкент. 2007. – Б. 62.